QORAQALPOQ TILIDAGI EKOLOGIK TERMINLARNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

D.Otebaeva – ***Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi***

Bugungi globallashuv davrida fan va texnikaning rivojlanishi, ekologik muammolarning hududiy chegaralardan chiqib, umumxalq muammolariga aylanishi hamda xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi natijasida ekologiya sohasiga oid yangi tushuncha va terminlar shakllanib bormoqda. Bu jarayon tillarning, shu jumladan, milliy tillarning ilmiy-terminologik tizimiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ekologik terminologiya zamonaviy til rivojlanishining faol va dinamik qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Qoraqalpoq tilida ham ekologiya, atrof-muhit xavfsizligi, tabiiy resurslar, flora va fauna, suv, tuproq hamda ekologik xavfsizlik bilan bog‘liq terminologik birliklar shakllangan. Ularning bir qismi milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, ayrimlari boshqa tillardan o‘zlashtirilgan. Shuningdek, ekologik terminlar tarkibiga yangidan-yangi tushunchalarning kirib kelishi terminologik tizimni tartibga solish va unifikatsiyalash masalalarini tahlil qilishni talab etadi.

Mashhur tilshunos olim D.S.Lotte terminologiyani tartibga solishda terminlarning ma’lum bir tushunchani aniq va tizimli ifodalashi, terminologik tizimning ichki tartibiga rioya etish muhim ekanligini ko‘rsatib o‘tgan [1.71].

Atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalarning xalqaro miqyosda katta ahamiyat kasb etayotgani bu sohaga oid yangi tushunchalarni nomlash ehtiyojini kuchaytirmoqda. Natijada ekologik terminologiya mavjud birliklarning kengayishi hamda yangi terminologik modellar va nomlash usullarining shakllanishi hisobiga boyib bormoqda.

Qoraqalpoq tilining zamonaviy ekologik terminologiyasida bu jarayonning ta’sirini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik loyihalar, davlat dasturlari, ekologik targ‘ibot-tashviqot tadbirlari va ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularning keng yoritilishi natijasida yangi terminologik birliklar samarali qo‘llana boshladi. Bunda o‘zbek tilida shakllanib, rasmiy va publitsistik diskursda keng ommalashgan ayrim birliklarning qoraqalpoq tilidagi ekologik matnlarda ham qo‘llanilishi alohida e’tiborga loyiqdir. Bu jarayon, ayniqsa, publitsistik matnlarda o‘z aksini topgan. Chunki, publitsistik uslub yangi ijtimoiy, siyosiy va ilmiy tushunchalarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi.

I.A.Agranovskaya ekologik terminologiyani ekologik diskurs bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganib, uning shakllanishi va rivojlanishini turli ilmiy yo‘nalishlar hamda

terminologik manbalar bilan bog‘laydi [2.187]. Ekologiya sohasida ham yangi tushunchalar dastlab rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalib, so‘ng umumiy terminologik qo‘llanish doirasiga kirib bormoqda.

Qoraqalpoq tilidagi zamonaviy ekologik birliklar orasida o‘zbek tilidagi ekologik diskurs ta’sirida samarali qo‘llanib kelayotgan “yashil” komponentli birikmalar alohida bir guruhni tashkil etadi. Bunday birliklarda “yashil” komponenti o‘zining dastlabki rang bildiruvchi ma’nosidan tashqari, ekologik barqarorlik, tabiatni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik mas’uliyat singari ma’nolarni ifodalovchi terminologik xususiyatga ega. Masalan: *jasıl joybar, “Jasıl” bayraq, jasıl baslama, jasıl mektep, jasıl zona, jasıl ideya, jasıl elshi, jasıl sáwbet, jasıl ekonomika, jasıl mákan, jasıl energiya* va boshqalar. Bu birliklarning qo‘llanilishi “jasıl” komponentining zamonaviy ekologik leksikada samarali nomlash vositasiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi. Terminlar ichidagi “jasıl baslama” so‘z birikmasida *jasıl* komponenti ekologik yo‘nalish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik barqarorlik mazmunini anglatib, *baslama* leksemasining semantik doirasini ekologik faoliyat bilan chegaralaydi. Bunda “yashil” komponentining terminologik faolligi yaqqol ko‘zga tashlanadi: bu so‘z turli ijtimoiy faoliyatni ekologik mazmun bilan bog‘lash imkonini beruvchi samarali komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

Qoraqalpoq tilidagi zamonaviy ekologik birliklarni “jasıl” komponentining semantik va funksional xususiyatlariga ko‘ra shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

1) Ekologik tushunchani ifodalovchi “jasıl” komponentli birliklar. Bunday so‘z birikmalarida “jasıl” leksemasi rang ma’nosidan uzoqlashib, ekologik jihatdan qulay, tabiatga ziyon yetkazmaydigan yoxud ekologik barqarorlikka asoslangan faoliyat va jarayonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *jasıl ekonomika, jasıl energiya, jasıl siyasat* va boshqalar. Bu birikmalarda *“jasıl”* komponenti muayyan bir sohaning ekologik tamoyillar asosida shakllanganini anglatadi. Demak, bunday holatda “jasıl” leksemasining semantik tarkibida ekologik mazmunning mustahkamlanishi va terminologik ixtisoslashuvi kuzatiladi.

2) Ekologik faoliyat, tashabbus va harakatni ifodalovchi birikmalar. Bu guruhga *jasıl baslama, jasıl háreket, jasıl sáwbet* v.b. kabi birikmalarni kiritish mumkin. Bu birliklarda “jasıl” komponenti muayyan bir predmet yoki sohaning ekologik xususiyatini emas, balki ekologik maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat, g‘oya yoki kommunikativ jarayonni bildiradi.

3) Ekologik loyiha, dastur yoki belgilash xususiyatiga ega birliklar. Bunday birliklarda “jasıl” komponenti ma’lum bir ekologik mazmunni ifodalash bilan birga, aniq bir loyiha, dastur yoki tashkil etilgan tadbirning nomlanishida ishtirok etadi. Masalan, *“Jasıl mákan”, “Jasıl bayraq”* va boshqalar. “Jasıl mákan” birikmasida “jasıl” komponenti oddiy rang ma’nosidan tashqari ko‘kalamzorlashtirish, ekologik barqarorlik va atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan umummilliy dastur mazmunini anglatadi. “Jasıl bayraq” esa “Eco-Schools Uzbekistan”

loyihasida maktabning ekologik faoliyati va erishgan natijalarini anglatuvchi mukofot (belgi) sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun bunday birikmalarni sof terminlardan ko‘ra, ekologik diskursda shakllangan rasmiy nomlash birliklari sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, “jasıl” komponentining zamonaviy diskursdagi funksional-semantik imkoniyatlari faqatgina ekologik tushunchalarni atash bilan cheklanmaydi. Balki, ekologik xususiyat, ekologik faoliyat va tashabbus, shuningdek, muayyan loyiha, dasturlarni nomlashda semantik-funksional doirada qo‘llanilmoqda. Bu esa “jasıl” komponentining zamonaviy ekologik leksikada samarali nomlash vositasi sifatida shakllanayotganidan dalolat beradi.

Olim H.Dadaboyev terminlarni muayyan bir ilm-fan yoki soha doirasidagi maxsus tushunchani anglatuvchi, terminologik tizim tarkibida ma’lum bir vazifani bajaruvchi birliklar sifatida ta’riflaydi [3.8].

Shuningdek, ekologik mazmunni ifodalashda “eko” komponenti asosida shakllangan yangi birliklarning ko‘paygani kuzatilmoqda. Bu komponent ekologiya tushunchasi bilan semantik jihatdan bog‘liq bo‘lgan birliklarni hosil qilishga xizmat qilib, yangi tushunchalarni qisqa va qulay nomlash imkonini beradi. Masalan: *ekofestival, ekobelsendiler, ekohárekat, ekokewilliler, ekostartap, ekokomitet, ekomektep, ekochempion, ekoseminar, ekopoliciya, ekomarafon, ekotrening,* va boshqalar. Bunday birliklarning paydo bo‘lishi ekologik terminologiyada yangi so‘z yasash va nomlash modellarining faol qo‘llanilayotganini tasdiqlaydi. Masalan, *ekomektep* birligida *“eko”* komponenti maktab tushunchasini ekologik ta’lim, ekologik tarbiya va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabat bilan bog‘laydi. Shu tariqa umumiy ma’nodagi *“mektep”* leksemasi ekologik yo‘nalishga ixtisoslashgan ta’lim tashkiloti yoki ta’lim modeli mazmunini anglatuvchi yangi nomlash birligiga aylanadi. *“Ekotálim”* birikmasida ham bu komponent ta’limning mazmuniy yo‘nalishini belgilab, ekologik bilim, ekologik madaniyat va tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq ta’lim jarayonini ifodalashga xizmat qiladi. *“Ekohárekat”* kabi birliklarda esa “eko-” komponentining semantik vazifasi yanada kengayib, u ekologik maqsad va manfaatlar asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birliklarda bu komponent nafaqat “ekologiyaga oid” umumiy belgini, balki muayyan faoliyatning ekologik yo‘nalganligini ham ko‘rsatadi. Demak, *“eko-”* komponentining ma’nosi u birikayotgan leksemaning semantik xususiyatiga qarab aniqlanadi.

Yuqoridagi misollarga asoslanib, zamonaviy qoraqalpoq ekologik terminologiyasining yangilanishida ikki muhim jarayonni ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchisi, avvaldan mavjud leksik birliklarning ekologik mazmunda terminlashuvi; ikkinchisi esa, boshqa tillardagi, ayniqsa o‘zbek tilidagi faol ekologik atama modellarining qoraqalpoq tilidagi qo‘llanish doirasi kengayishi. Ikkinchi jarayonni shunchaki so‘z o‘zlashtirish sifatida emas, balki terminologik model va nomlash usullarining ta’siri sifatida ham baholash mumkin.

Demak, ekologik sohadagi yangi ijtimoiy ehtiyojlar qoraqalpoq tilining ekologik terminologik qatlamini doimiy ravishda yangilab bormoqda. Ayniqsa, “jasıl” va “eko” komponentlari asosida yuzaga kelayotgan yangi birliklar zamonaviy ekologik diskursning faol unsurlariga aylanmoqda. Ularning publitsistik matnlarda qo‘llanilishi esa yangi ekologik tushunchalarning tilga kirib kelishi, yoyilishi va terminologik tizimda mustahkamlanishi jarayonini kuzatish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi taraqqiyot asrida qoraqalpoq ekologik terminologiyasi yangi tushunchalar va atama birliklari bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, “jasıl” komponentli birikmalar va “eko” komponenti asosida shakllangan birikmalarning publitsistik hamda ijtimoiy-iqtisodiy diskursdagi faolligi ekologik leksikaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalaridan biridir. Bu birliklarni ilmiy jihatdan o‘rganish va tartibga solish qoraqalpoq ekologik terminologiyasining rivojlanishi hamda tizimli qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии: вопросы теории и методики. – Москва Издательство АНН СССР. 1961.
2. Аграновская И.А. Обзор диссертационных исследований по терминологии экологии // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. – 2016. - №3. 184-193.
3. Dadaboyev H. O’zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
4. Qaraqalpaqstan Respublikası Ekologiya, qorshaǵan ortalıqtı qorǵaw hám ıqlım ózgeriwi ministrligi. Telegram kanalı: @Ecokomuz [Elektron resurs].
5. “Qaraqalpaqstan Ekologiyası” gazetasi. Rasmiy Telegram kanali: @olya_eco [Elektron resurs].